

“GIRDOB GULI”**Sanaqulova Sohiba Vohidjon qizi**

*Men 1999-yil, 25-iyunda Samarqand viloyati Payariq tumani,
Oqqo'rg'on qishlog'ida tug'ilganman. Oilaliman, hozirda Payariq
tumani Ilg'or mahallasida istiqomat qilaman.*

Men ushbu novellani yozishimdan maqsad jamiyatda insonlar turli yo'llar orqali qilayotgan qing'irliklari nafaqat o'zining balki oilasi, yaqinlari va umuman olganda butun bir jamiyatning hayotini izdan chiqarib yuborishi ham mumkinligini yoritib berganman. Novellada Lobar, Latif, Erkin kabi bosh qahramonlar hamda Lobarning onasi Nargiza opa, otasi Farhod aka, Ozod, Bobur, Iskandar, Asadbek, Azim, Ikrom va qo'shni bir qizcha hamda bog'bon ota kabi epizodik qahramonlar gavdalandirilgan.

Novellani “GIRDOB GULI” deya nomlashimdan maqsad – novella voqealari yaxshi va yomon qismlarga bo'linganligidadir. Bu asarni men Samarqandlik shoir A'zamat Qorjovovning “QIL USTIDAGI TAQDIR” asaridan ta'sirlanib yozdim. Chunki o'sha asarda ham Lobar obrazi gavdalandirilgan hamda uning turmush o'rtog'ining yomon illatlari ortidan o'zi ham qimor olamiga tushib qolib hayoti chunonam izdan chiqib ketganligi va shuning ortidan qanchalik ko'p qiyinchilik ko'rganligi, kamiga o'g'li Parvizni ham bu girdobga tortib ketganligi umuman olganda muammo ortidan muammoga duch kelganligi asarda juda ta'sirli tarzda yoritib berilgan. O'shaning uchun men ham asarning bosh qahramonini Lobar deya atadim. Chunki ikkala asarning ham Lobarlari **“...kuzda daraxt novdasidan ayrilgan bargdek har tarafda to'zg'ib yurar edi...”**.

Asarning asosiy g'oyasi ma'naviyatsizlik va madaniyatsizlik ustiga qurilgan, chunki undagi har bir qahramonda bir kemtiklik bor. Bunga majozan asar ham aynan KUZ faslining chiroyli tashbehi ila boshlangan. Xoh u Lobarning onasi bo'lsin, xoh otasi bo'lsin. Bu kemtiklikni ayniqsa ko'pni ko'rgan, o'qimishli lekin qizini hayotini o'z nafsini tufayli barbod qilgan Farhod aka timsolida ham ayniqsa ko'rishimiz mumkin. Bu qahramonimiz ham **“Qopqondagi tekin pishloqqa oshiqqan bir sichqon”** dir.

Lobar ham bilimga chanqoq bir beg'ubor qizcha edi lekin uning orzulari otasining bila turib qilgan shuhratparastligi, nafsini sababli barbod bo'ldi. Uning eri Latif esa uchiga chiqqan battol, g'iyohvand, razil qiyofasida gavdalandirilgan. Bu vaziyat Lobar uchun otasinikeyidan keyingi ikkinchi zarba bo'ldi.

Asardagi epizodik qahramonlar ham o'z o'rnida novellaga o'zgacha emotsiya bag'ishlagan, chunki epizodik qahramonlarsiz asarni to'laqonli tushunish ham birmuncha qiyin bo'ladi. Asar davomida Latifning pastkashligi tufayli Lobarning qimorga boy berilishi hamda ularning qo'lidagi Asadbekdek insonning saxiylik tufayli omon qolganligi hamda tirikchilik dardida mardikorlikka chiqib hayotning yana bir girdobiga majozan olib qaraganda “tushib ketganligi” asarga o'zgacha hayajon bag'ishlaydi. Lobar uchun sinovga keyingi bosqichda Erkin tayyor edi. To'g'ri Erkin sababli uning hayoti do'zaxga aylandi, qotillik qilib qo'ydi, Erkinning hayotiga nuqta qo'ydi, balki bu ham

yomonlikka qo'yilgan yaxshilik sari ilk qadamdir. Agar Lobar qotillik qilmaganda qamoqqa ham olinmasdi, u yerda Latifni ham uchratmasdi.

Asarda ayniqsa Erkinning murdasini sudrab chiqayotgan va ko'mayotgan hamda izziz yo'qolganidan so'ng esa tergov harakatlari olib borilishi, murdaning esa hovlidagi mevali daraxt tagidan topilish sahnalari juda qo'rqinchli va ta'sirli yoritilgan.

Qahramonimiz Lobarning birdan bir orzusi Chet Tillar Institutiga o'qishga kirish edi. Va novella so'ngida Lobar va Latif amnitsiya tufayli ozodlikka chiqib qaytadan turmush qurganlaridan keyin bu ham amalga oshadi.

Kitobga mehr qo'ygan va unga do'st tutingan insonning ma'naviyati ham, axloqi ham, muomala madaniyati ham anchagina mukammal bo'ladi buning isboti sifatida bosh qahramon Latifni yaqqol misol qilib olishimiz mumkin. Zero **“Kitob ruhiyat davolovchisidir”**.

Dunyoqarashning torligi, mustaqil fikrlashning yo'qligi sababli asar qahramonlari ham ko'pgina jinoyatlarga qo'l urganligi va oxir oqibat panjara ortiga yetaklagani voqealar rivojida keskin tasvirlangan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Frenchesko Petrarka aytganidek: **“Kitob o'qimagan odamning murdadan farqi yo'q”**. Kitob o'qimagan insonlar tom ma'noda-jamiyat murdalaridir.

